



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxamedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashevich	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	101
Rustamov Zafar	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	107
Metyakubov Azamat Djumanazarovich	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH	111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
Melibayev Sodir Adilovich	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI	135
Sheraliev Abbos Xolmuminovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN	140
Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI	147
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI.....	152
Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li	
ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI	162
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	166
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
HUDUDIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	171
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	181
Umarova Malika Nematjanovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СТАНОВЛЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	187
Рахмонов Джамшид Одил угли	



ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	194
Абдусаламова Фарогат Сунатиллаевна	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	200
Avazbek Jo'rayev	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK OMILLARNING IQTISODIY AHAMIYATI	207
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	211
Berdimuratov Kuanishbay Genjebaevich	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ СТЕЙКХОЛДЕРАМИ ПРОЕКТОВ И ПРОГРАММ.....	215
Абдулаттоев Абдухакимжон Абдулхамид угли	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI.....	228
Mohichexra Melikovna Mo'minova	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI: XALQARO TAJRIBA TAHLILI	233
Dilbar Xasanovna Aslanova, Usmanova Zumrad Islamovna	
TA'LIM TIZIMIDA MARKETING YONDASHUVI VA TAMOYILLARINI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	239
Musayeva Shoira Azimovna, Raxmonova Aziza Tolibovna	
MEHMONXONALAR VA OILAVIY MEHMON UYLARI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	245
Boynazarov Ulug'bek Egamberdiyevich	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHİYATIDAN FOYDALANISH ORQALI ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	250
Daminov Mirvoxid Isroilovich	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MAKROIQTISODIY VA TARMOQ KO'RSATKICHLARI ASOSIDA TAHLIL	255
Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING INNOVATION SAMARADORLIKKA TA'SIRI	264
Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li	
ИССЛЕДОВАНИЕ АКТИВНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ КАТАЛИЗАТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ГИДРООЧИСТКИ НЕФТЕПРОДУКТОВ И ИХ РОЛЬ В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ.....	271
Тураев Баходир Тиркашевич, Махманов Дониёр Махманович	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIY TURIZM BOZORINING MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDAGI KOMPLEKS TAHLILI	276
Namozov Shahzod Maxmud o'g'li	
INNOVATIVE TRANSFORMATION PROCESSES AND ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE FIELD OF AGRICULTURAL SERVICES.....	282
Djurayeva Dilnoza Davronovna, Boltayeva Shakhnoza Bebudovna	
COMPARISON OF HOSPITAL-BASED AND HOME-BASED REHABILITATION AFTER CERVICAL SPINE SURGERY IN UZBEKISTAN	290
Shokhrukh Ziyavaddinov	
О'ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIVAVIY KOEFFITSIYENTLARI TAHLILI	299
Norqulov Mirsaid To'lqin o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	306
Turdiyev Izatulla Ollaqulovich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA HISOBI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	312
Xoliqulova Yulduz Panji qizi	



ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSIYALARNING O'RNI: XORIJ TAJRIBASI	317
Mavlonov Ozod Ulug'bekovich	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY DAVLATLAR ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	322
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
BANK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	330
Boltayev Zokirjon Otanazarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	334
Adilova Zohida Ikromjonovna	
MOLIYAVIY AKTIVLAR TARKIBIDAGI DEBITORLIK QARZDORLIKLARINI MHXS TALABLARI ASOSIDA BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	339
Umurzakov Dilshodbek Hakimovich	
ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕНЕДЖМЕНТА В УСЛОВИЯХ УДАЛЁННОЙ РАБОТЫ	345
Хамидов Далер Дилшодович	
ISMOIL SOMONIY MAQBARASINING TURISTIK SIG'IMINI BAHOLASH: BUXORO TARIXIY MARKAZI MISOLIDA.....	351
Choriyeva Dilovar Tohir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
CONSUMER TRUST IN UZBEKISTAN'S E-COMMERCE	356
Erkin Shavqiyev Professor, Ulugmurodov Farkhod	
IMPROVING THE FINANCING SYSTEM OF EXPORT ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS ENTITIES.....	362
Karamatdinova Aysawle Parakhatovna	
XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARINING RAQAMLI MARKETING VOSITALARI TAHLILI: O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	369
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
SURXONDARYO VILOYATIDA MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	374
Islomov Bobur Bahodir o'g'li	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALARGA AMORTIZATSIYA HISOBLASH USULLARI VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH	380
Xasanov Shoxrux Raximjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA REAL SEKTOR KORXONALARINING ROLI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	385
Sobitova Ra'no Solidjonovna, Babaxadjayev Firdavs Bahodir o'g'li	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEK CONSULTING SERVICES MARKET AND METHODS FOR ASSESSING THE POTENTIAL FOR ATTRACTING INVESTMENTS	388
Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
RESPUBLIKAMIZDA UMUMIY OVQATLANISH SOHASI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARDAN FOYDALANISH.....	394
Kalanova Moxigul Baxritdinova	



RESPUBLIKAMIZDA UMUMIY OVQATLANISH SOHASI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARDAN FOYDALANISH

Kalanova Moxigul Baxritdinova

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Marketing” kafedrası dotsenti v.b.

E-mail: moxigulkalanova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish sohasi xizmatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Jumladan, iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhiti, texnologik modernizatsiya hamda inson kapitalini rivojlantirish kabi muhim omillar o'rganilgan. Tadqiqot davomida sohadagi mavjud imkoniyatlar va dolzarb muammolar aniqlanib, ushbu omillardan strategik foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, xizmatlar sifatini oshirish, bozor qamrovini kengaytirish va sohaning barqaror o'sishini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: umumiy ovqatlanish sohasi, xizmatlar rivojlanishi, iqtisodiy omillar, ichki omillar, tashqi omillar, texnologik innovatsiyalar, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract. This article analyzes the main factors influencing the development of public catering services in the Republic of Uzbekistan. In particular, important factors such as economic reforms, investment climate, technological modernization, and human capital development are examined. The study identifies existing opportunities and current challenges within the sector and substantiates the importance of the strategic use of these factors. Furthermore, scientific and practical recommendations have been developed to improve service quality, expand market coverage, and ensure sustainable growth in the sector.

Key words: public catering sector, service development, economic factors, internal factors, external factors, technological innovations, economic stability.

Аннотация. В данной статье проанализированы основные факторы, влияющие на развитие сферы общественного питания в Республике Узбекистан. В частности, изучены такие важные факторы, как экономические реформы, инвестиционный климат, технологическая модернизация и развитие человеческого капитала. В ходе исследования выявлены существующие возможности и актуальные проблемы отрасли, а также обоснована важность стратегического использования данных факторов. Кроме того, разработаны научно-практические рекомендации по повышению качества обслуживания, расширению охвата рынка и обеспечению устойчивого роста отрасли.

Ключевые слова: сфера общественного питания, развитие услуг, экономические факторы, внутренние факторы, внешние факторы, технологические инновации, экономическая стабильность.

KIRISH

Umumiy ovqatlanish sohasi zamonaviy jamiyat hayotida muhim o'rin tutib, ilmiy-gigiyenik standartlarga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va realizatsiya qilish, shuningdek, iste'molchilarga oshxonalar, restoranlar, choyxonalar hamda kafelar orqali sifatli xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Mazkur tizim mehnat kooperatsiyasining rivojlanishiga xizmat qilib, ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini sezilarli darajada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda umumiy ovqatlanish sohasida iste'molchilarning vaqtini tejash, ularga qulay sharoit yaratish hamda madaniy hordiq chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha samarali tizim shakllanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish sohasi xizmatlarini rivojlantirishda ushbu sohaga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama va chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Sohaga ta'sir ko'rsatuvchi



omillardan samarali foydalanish bo'yicha strategik yondashuvlar va mexanizmlarni ishlab chiqish orqali soha rivojlanishini jadallashtirish, iste'molchilar ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tarixan O'zbekistonda choyxonalar umumiy ovqatlanish tizimida markaziy o'rin egallagan bo'lsa, mustaqillik yillaridan so'ng ushbu soha jadal ravishda xususiylashtirilib, xususiy hamda nodavlat korxonalar ulushi sezilarli darajada oshdi (Gössling & Peeters, 2021). Bugungi kunda umumiy ovqatlanish korxonalari keng turdagi xizmatlarni taklif etib, mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Zamonaviy umumiy ovqatlanish korxonalari nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi subyekt, balki xizmat ko'rsatish madaniyati va mijozlar tajribasini shakllantiruvchi muhim tizim sifatida ham faoliyat yuritmoqda (Kalanova, 2025).

Shu bilan birga, mazkur sohaning rivojlanishi bir qator ichki va tashqi omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni chuqur tahlil qilish strategik ahamiyat kasb etadi. Xususan, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, xizmat ko'rsatish sifati va raqobat muhitini takomillashtirish masalalari dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayrim korxonalarda "promo set"larni tavsiya etish, minimal narx siyosatini qo'llash hamda xizmatlar tanlovini tartibga solish bilan bog'liq holatlar kuzatilishi iste'molchilarning erkin tanlov imkoniyatlarini yanada kengaytirish zaruratini ko'rsatadi (O'Connor & Buhalis, 2021). Mazkur jarayonlar xizmatlar sifatini oshirish va sog'lom raqobat muhitini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, atrof-muhit barqarorligini ta'minlash va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan zamonaviy talablar ham soha rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Jumladan, oziq-ovqat chiqindilarini qayta ishlash asosida organik o'g'itlar ishlab chiqarish, oqava suvlarda yog' tutgichlardan foydalanish hamda atmosfera havosini muhofaza qilishga qaratilgan ekologik standartlarni joriy etish bo'yicha amaliy yondashuvlar keng qo'llanilmoqda (Sharma, Dwivedi & Singh, 2022). Ushbu omillar umumiy ovqatlanish xizmatlari sifatini oshirish, samaradorlikni kuchaytirish va sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mantiqiy yondashuv, kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash hamda tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning umumiy ovqatlanish sohasi iqtisodiyotiga oid ilmiy qarashlari, sohani rivojlantirish omillari, mavjud imkoniyatlar hamda ularning samarali yechimlari bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlari o'rganildi. Tadqiqot davomida sohaga oid qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ular asosida ilmiy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekistonda umumiy ovqatlanish sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, ilmiy-gigiyenik me'yorlarga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash, realizatsiya qilish hamda iste'molchilarga sifatli xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Mazkur tizim aholi ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda, mehnat kooperatsiyasini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, iste'molchilar vaqtini tejash hamda madaniy hordiq chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixan choyxonalar ushbu sohada markaziy o'rin egallagan bo'lsa, mustaqillik yillaridan so'ng sohaning jadal xususiylashtirilishi natijasida xususiy va nodavlat korxonalar ulushi sezilarli darajada oshdi. Mazkur jarayon korxonalar sonining ko'payishi, xizmatlar turining kengayishi hamda xizmat ko'rsatish sifatining yanada takomillashishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda umumiy ovqatlanish korxonalari keng turdagi xizmatlarni taklif etib, restoranlar, kafelar, oshxonalar, choyxonalar, barlar, bufetlar va kofeteriyalar kabi turli formatdagi muassasalarni o'z ichiga oladi. Har bir turdagi muassasa o'ziga xos xizmatlar majmuasi, menyu tarkibi hamda xizmat ko'rsatish darajasi bilan ajralib turadi. Jumladan, restoranlar yuqori sifatli va murakkab tayyorlanadigan taomlar hamda ichimliklarni taklif etsa, oshxonalar kundalik ovqatlanish uchun tezkor va qulay xizmatlarni taqdim etadi. Choyxonalar esa milliy taomlar, shirinliklar va pishiriqlar bilan bir qatorda, choy ichish madaniyatiga ixtisoslashgan xizmatlari bilan tavsiflanadi.

Sohaning istiqboldagi rivojlanishi o'rinlar sonini ko'paytirish, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini yanada yaxshilash, pazandachilik sanoatini rivojlantirish hamda mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu tendensiyalar aholi turmush darajasining oshishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda turizm salohiyatining kengayishi bilan bevosita bog'liqdir. Natijada umumiy ovqatlanish korxonalari nafaqat iqtisodiy

faoliyat subyektlari, balki ijtimoiy-madaniy muhitning muhim tarkibiy qismi sifatida ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, sohaning rivojlanishi bir qator ichki va tashqi omillar ta'siri ostida shakllanib, ularni chuqur tahlil qilish hamda ulardan samarali foydalanish strategik ahamiyatga ega hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Umumiy ovqatlanish sohasi xizmatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar

Umumiy ovqatlanish sohasi xizmatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ichki (mikroiqtisodiy) va tashqi (makroiqtisodiy) guruhlarga bo'linadi. Mazkur omillarni tahlil qilish sohaning mavjud imkoniyatlari, rivojlanish istiqbollari hamda strategik yo'nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy ovqatlanish sohasi xizmatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ichki omillar korxonalarining bevosita faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ularning samaradorligi va raqobatbardoshligini belgilaydi. Ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- xizmat ko'rsatish va taomlar sifati;
- menyu va xizmat ko'rsatishdagi innovatsiyalar;
- xodimlarning malakasi va professionalligi;
- operatsion samaradorlik hamda xarajatlarni boshqarish.

Yuqori sifatli mahsulotlar, zamonaviy texnologiyalar, malakali kadrlar, jumladan, xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar va samarali boshqaruv tizimi mijozlar bazasini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, iste'molchilar huquqlariga rioya qilish masalasi ham ichki omillar tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Raqobat qo'mitasi tomonidan umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifati, narxlar shaffofligi hamda iste'molchilarga qulay sharoit yaratish bo'yicha olib borilayotgan tizimli nazorat va tavsiyalar sohada xizmat ko'rsatish madaniyatini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, "promo set"larni taklif etish, narx siyosatini tartibga solish hamda iste'molchilarning erkin tanlov imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yondashuvlar xizmatlar sifatini oshirish va sog'lom raqobat muhitini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, allergen mahsulotlar mavjud bo'lgan ovqat to'plamlari bo'yicha iste'molchilarga aniq ma'lumot berish va ularning salomatligini inobatga olish xizmat ko'rsatish sifati hamda xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi¹.

Umumiy ovqatlanish sohasi xizmatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi tashqi omillar esa sohaning makroiqtisodiy va institutsional muhitini belgilaydi. Tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy o'sish;
- aholi daromadlari;
- demografik o'zgarishlar (urbanizatsiya va yosh aholi ulushi);
- turizmning rivojlanishi;
- texnologik taraqqiyot (onlayn buyurtma tizimlari, yetkazib berish platformalari va raqamli to'lov xizmatlari).

Mazkur omillar umumiy ovqatlanish xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantirib, korxonalar faoliyatini kengaytirish hamda yangi xizmat turlarini joriy etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Tartibga solish muhiti, ya'ni qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham soha faoliyatini belgilovchi muhim tashqi omillardan biri hisoblanadi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga oid qonunlar, sanitariya-gigiyena standartlari hamda litsenziyalash talablari korxonalar faoliyatini samarali tashkil etishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, atrof-muhit barqarorligini ta'minlash va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan yangi talablar sohada ekologik mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, 2025–2027-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar doirasida oziq-ovqat chiqindilaridan organik o'g'itlar ishlab chiqarish

1 O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi 221-I-son "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4704?ONDATE=17.05.1996%2000>



tizimini keng joriy etish, oqava suvlarda yog' ajratishni ta'minlash maqsadida 2026-yil 1-iyuldan boshlab yog' tutgich qurilmalarini o'rnatish, shuningdek, havo ifloslanishini kamaytirishga qaratilgan zamonaviy standartlarni joriy etish ko'zda tutilgan. Xususan, 2026-yil 1-yanvardan boshlab ventilyatsiya va havo filtrlash tizimlariga nisbatan yangi talablar amal qilib, ifloslantiruvchi moddalar hamda noxush hidlarning kamida 95 foizini ushlab qolish imkoniyatiga ega uskunalarni o'rnatish belgilangan².

Mazkur talablar korxonalarda texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda uzoq muddatli ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqobat muhitining rivojlanishi va iste'molchilar preferensiyalarining o'zgarib borishi, jumladan, sog'lom ovqatlanish, xalqaro oshxonalar hamda milliy taomlarga bo'lgan qiziqishning ortishi soha rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish sohasining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qilish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq dolzarb masalalarni o'rganish soha rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror o'sishga erishish uchun texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish, kadrlar malakasini muntazam oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda tartibga soluvchi me'yorlarga qat'iy rioya qilish muhim strategik yo'nalishlar hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar sohaning istiqboldagi barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil qilingan omillardan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish sohasi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy o'sish va turizm salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa umumiy ovqatlanish korxonalarini tomonidan diversifikatsiyalashgan xizmat va mahsulotlarni taklif etishni talab qiladi. Xorijiy sayyohlar uchun milliy taomlarni zamonaviy talqinda taqdim etuvchi, xorijiy tillarni biladigan malakali xodimlarga ega restoranlar tarmog'ini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, aholi daromadlarining oshib borishi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvini inobatga olib, turli narx segmentlaridagi, jumladan, tezkor xizmat ko'rsatuvchi oshxonalar hamda yuqori darajadagi restoranlar sonini ko'paytirish zarur hisoblanadi.

Texnologik innovatsiyalarni faol joriy etish soha samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Onlayn buyurtma va yetkazib berish platformalarini kengaytirish, raqamli menyularni joriy etish, kontaktsiz to'lov tizimlarini qo'llash hamda mijozlar bilan muloqot jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish va operatsion xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati kengayadi.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va ularning ishonchini mustahkamlash strategik ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bois, korxonalarda narxlar shaffofligini ta'minlash, menyudagi barcha mahsulotlar bo'yicha erkin tanlov imkoniyatini yaratish hamda iste'molchilarga qo'shimcha xizmatlarni tavsiya etishda ochiq va shaffof yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, allergen mahsulotlar haqida aniq ma'lumot berish va iste'molchilarning salomatligini inobatga olish xizmat ko'rsatish sifati hamda iste'molchilar xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Atrof-muhit barqarorligini ta'minlash va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan zamonaviy talablarga moslashish maqsadida tizimli choralarni amalga oshirish zarur. Jumladan, 2026-yil 1-iyuldan boshlab oqava suvlarga yog' tutgich qurilmalarini o'rnatish, oziq-ovqat chiqindilarini qayta ishlash asosida organik o'g'itlar tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda kadrlar tayyorlashga investitsiyalarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, havo ifloslanishini kamaytirish maqsadida ventilyatsiya va havo filtrlash tizimlarini modernizatsiya qilish, ifloslantiruvchi moddalar hamda noxush hidlarning kamida 95 foizini ushlab qoluvchi zamonaviy uskunalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro grantlar va investitsiyalarni jalb qilish orqali ushbu loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Kadrlar salohiyatini muntazam oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash soha rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Pazandachilik, xizmat ko'rsatish etikasi hamda menejment bo'yicha zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish, xodimlarning malakasini oshirish kurslarini tashkil etish orqali xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash mumkin. Shuningdek, o'ziga xos konsepsiyalar, yuqori sifatli mahsulotlar va innovatsion xizmatlar orqali differensiyatsiyaga erishish, bozor tendensiyalarini muntazam o'rganish hamda innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali bozor ulushini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur strategiyalar va mexanizmlarni kompleks ravishda amalga oshirish O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish sohasi xizmatlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, iste'molchilar ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish hamda mamlakat iqtisodiy o'sishiga munosib hissa qo'shishga xizmat qiladi.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.09.2025-yildagi 589-son "Umumiy ovqatlanish korxonalarida hosil bo'ladigan oziq-ovqat chiqindilaridan samarali foydalanish va ularning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/luz/docs/-7730458>



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gössling, S., & Peeters, P. (2021). Sustainable Food Systems: The Role of the Food Service Sector. London: Routledge.
2. O'Connor, P., & Buhalis, D. (Eds.). (2021). The Future of Hospitality: Innovation and Transformation. London: Routledge.
3. Sharma, S. K., Dwivedi, S. K., & Singh, A. K. (2022). Digitalization and innovation in the food service industry: A systematic review and future research agenda. *Journal of Foodservice Business Research*, 25(4), 301–325.
4. Han, L. M., Lee, S. H., & Kim, J. H. (2021). Investigating drivers and barriers of sustainable food practices in the hospitality industry. *International Journal of Hospitality Management*, 92, 102729.
5. Kalanova, M. B. (2025). Umumiy ovqatlanish korxonalarida marketing strategiyalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. *Fan va texnologiyalardagi innovatsiyalar*, 2(6), 526–530.
6. Kotler, P., Bowen, J. T., & Makens, J. C. (2022). *Marketing for Hospitality and Tourism* (8th ed.). New York: Pearson Education.
7. Davis, B., Lockwood, A., Alcott, P., & Pantelidis, I. (2021). *Food and Beverage Management* (7th ed.). London: Routledge.
8. Namkung, Y., & Jang, S. (2021). Effects of restaurant green practices on brand equity formation: Do green practices really matter? *International Journal of Hospitality Management*, 93, 102798.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
